

JAHON QIMMATBAXO METTALLAR BOZORI VA UNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Tangirberdiyeva Gulchexra

Toshkent davlat iqtisodiyot Universiteti

*Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar kafedrasi o'qtuvchisi
gulchehratangirberdiyeva@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar muomalasi sohasidagi munosabatlarni kompleks huquqiy tartibga solish, zargarlik buyumlari asillik darajasini belgilash, tamg'alash tizimi, shuningdek, ularning sifatini nazorat qilish tartib-taomillarini, shu jumladan, davlat-xususiy sheriklik mexanizmini qo'llagan holda takomillashtirish masalalari e'tiborga olingan. Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar muomalasi sohasidagi davlat organlari, boshqa ishtirokchilarning vakolatlari hamda javobgarlik sohasini aniq chegaralash ko'zda tutilgan. Sohaga xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish uchun qulay sharoit yaratish va raqobat muhitini yaxshilash masalalari e'tibordan chetda qolmagan.

Kalit so'zlar: Jalon bozori, tovar, mehnat, capital, oltin, kumush, platina, palladiy, qimmatbaho metal.

Jahon bozori — xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etish bilan o'zaro bog'langan mamlakatlar o'rtasidagi barqaror tovar-pul munosabatlari tizimi. Xalqaro savdo munosabatlari qadimda ham mavjud bo'lган, mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy va siyosiy aloqalar milliy davlatlarning paydo bo'lishi bilan yuzaga kelgan, ammo ko'pgina mamlakatlar, so'ngra jaxondagi barcha mamlakatlar savdosini qamraydigan Jahon bozori (uning negizida jahon xo'jaligi) faqat yirik mashinalashgan industriyaga o'tish bilan shakllana boshladi va 20-asr boshiga kelib qaror topdi. Yirik mashinalashgan ishlab chiqarishga o'tish milliy bozor chegaralarini kengaytirdi, tashqi savdo u yoki bu mamlakatning ichki taraqqiyotini to'ldiradigan omildan mamlakat xo'jaligi taraqqiyotining zaruriy shartiga aylandi. Ixtisoslashuv bir mamlakatda muayyan tovarni arzon va sifatli i. ch. imkonini bersa, tovarlarni i. ch.da resurslardan samarali foydalanishni ta'minlasa, shu tovarlar ko'plab yaratiladi va Jahon bozoriga yetkazib beriladi. Biror mamlakatda resurelarni sarflash qulay bo'lмаган yoki i. ch. imkon bulmagan tovarlar Jahon bozoridan sotib olinadi. Jahon bozorida alohida narxlar — jahon narxlari amal qiladi; ayrboshlash ulgurji shaklda va xalqaro birjalar vositasida olib boriladi.

Jahon bozori tovar, mehnat, kapital va valyuta bozorlari majmuidan tashkil topadi (qarang Mehnat bozori, Ishchi kuchi bozori). Jahon bozorida barcha mamlakatlar tashqi savdosining majmuini ifoda etadigan xalqaro savdo amalga oshiriladi. Bu tarkiban jahon miqyosidagi eksport va importdan iborat, ularning qiymat bo‘yicha nisbati savdo balansi deb yuritiladi.

Jahon bozori xalqaro birjalar, savdo uylari, banklar, sug‘urta kompaniyalaridan iborat bulgan o‘z infratuzilmasiga ega. Jahon bozori to‘lovlar va hisob-kitoblar xalqaro pul vazifasini o‘tovchi barqaror, erkin almashtiriladigan valyutalar, maye, AQSH dollari, Yaponiya iyenasi va yevroda olib boriladi. Jahon bozori ixtisoslashgan xalqaro birjalardan iborat yirik segmentlariga ega. Maye, Chikago don birjasи, Liverpul paxta birjasи va London rangli metallar birjasи va b. Jahon bozorida savdo-sotiq xalqaro birja bitimlari, ikki tomonlama yoki ko‘p tomonlama birjadan tashqari bitimlar yo‘nalishlarida boradi.

Jahon bozoridagi savdo-sotiqni maxsus tashkilot — Jahon savdo tashqishyuti boshqarib boradi, davlatlararo savdo tartibi va qoidalarini belgilab beradi, unga a’zo bo‘lganlar o‘zlarini uchun qulay savdo qilish huquqini oladilar.

Jahon bozorida investitsiya harakati ham yuz beradi, bu chet elda yangi korxonalarni qurish, eski korxonalarni sotib olish yoki o‘ziga birlashtirish shakllariga ega. Bu ishni asosan transmilliy xalqaro korporatsiyalar olib boradi. 2000-yil jahondagi bevosita xorij investitsiyalari 865 mlrd. AQSH dollariga teng bo‘ldi. Ular amalga oshirgan oldi-sotdi operatsiyalari 1999-yilda 14 trillion dollarni tashkil etdi.

Jahon bozorining ulkan salohiyati milliy bozorlarga juda katta ta’sir o‘tkazadi, bu ta’sir mamlakatlarning manfaatlari nuqtai nazaridan ijobjiy yoki salbiy bo‘lishi mumkin. Jahon bozori sig‘imi jami mamlakatlar bozor talabining import hisobiga qondiriladigan qismlari yig‘indisiga teng.

Jahon bozorida sanoati rivojlangan mamlakatlar ishtiroki ustunlik qiladi va ular tayyor mahsulot bilan (jahon tovar eksportining 70 % dan ko‘prog‘i) qatnashadilar, rivojlanayotgan mamlakatlar asosan xom ashyo va ishchi kuchi eksporti bilan ishtirok etadilar.

Jahon bozorida ishtirok etadigan jami mamlakatlarning eksporti 6,48 trillion dollarni, importi 6,41 trillion dollarni tashkil qildi (1996; 1980-yilda tegishlichcha 2,44 va 2,42 trillion dollar).

Bugungi kunda yurtimizda qimmatbaho metallar bozori va uning rivojlanish itiqbollarig aoid qator ishlar amalga oshirilmoqda. Masalan,

Ushbu Qonunning maqsadi qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlarning muomalada bo‘lishi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Ushbu Qonunning amal qilishi yakka tartibdagi tadbirkor bo‘lmagan jismoniy shaxslar o‘rtasida, xususiy mulk huquqi asosida jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan qimmatbaho metallardan va qimmatbaho toshlardan yasalgan zargarlik hamda boshqa buyumlar bo‘yicha tuziladigan bitimlarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Qimmatbaho metallar. Ular qimmatbaho metallar deb ataladi, chunki ular o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ularni qimmatli va juda talabchan qiladi. Bu metallar kamdan-kam uchraydi, chiroli porlashi va korroziyaga qarshi turish qobiliyatiga ega. Eng keng tarqalgan qimmatbaho metallar qatoriga oltin, kumush, platina va palladiy kiradi.

Oltin, ehtimol, eng mashhur qimmatbaho metaldir. U asrlar davomida pul birligi va boylik ramzi sifatida ishlatilgan. Bundan tashqari, zargarlik buyumlari uchun mashhur material bo‘lib, uning yorqin sariq rangi va yorqinligi tufayli estetik jozibaga ega.

07.06.2024 kun ma’lumotiga ko‘ra o‘lchovli oltin quymalarni sotuv narxlari

Og‘irligi	Sotish narxi
5 gram	5 003 000 so‘m
10 gram	10 006 000 so‘m
20 gram	20 013 000 so‘m
50 gram	50 032 000 so‘m

Kumush ming yillar davomida ishlatilgan yana bir qimmatbaho metaldir. Bu ko‘zgular, zargarlik buyumlari va turli xil uy-ro‘zg‘or buyumlarida ishlatilgan juda aks ettiruvchi metalldir. Oltin singari kumush ham pul birligi sifatida qadrlanadi.

Platina noyob va juda bardoshli metall bo‘lib, so‘nggi yillarda tobora ommalashib bormoqda. U chiroli kumush-oq rangga ega va ko‘pincha zargarlik buyumlari, elektronika va tibbiy asbob-uskunalarda qo‘llaniladi.

Palladiy o‘zining noyob xususiyatlari tufayli so‘nggi yillarda mashhur bo‘lgan yana bir nodir metaldir. U platina oilasining a’zosi bo‘lib, uning ko‘plab xususiyatlariga ega, ammo engilroq va kamroq zichroq. Ko‘ pincha avtomobil sanoatida katalitik konvertorlar uchun ishlatiladi.

Umuman olganda, qimmatbaho metallar noyobligi, go‘zalligi va ularni qimmatli qiladigan turli xil xususiyatlari bilan mashhur. Ular o‘zlarining o‘ziga xos xususiyatlari uchun juda talab qilinadi va kelgusi yillar davomida yuqori baholanadi.

Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar to‘g‘risidagi qonunchilik ushbu Qonun hamda boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar to'g'risidagi qonunchiligidan nazarda tutilganidan boshqacha qoidalari belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

asillik darajasi — kimyoviy jihatdan sof qimmatbaho metall og'irlik birliklarining qimmatbaho metall qotishmasining bir ming og'irlik birligidagi miqdori;

asillik darajasini aniqlash — qimmatbaho metallardan yasalgan zargarlik hamda boshqa buyumlarning asillik darajasini belgilangan usullar orqali aniqlash yoki tasdiqlash;

affinaj korxonalari — qazib olingan rudalardan, konsentratlardan va yarim tayyor mahsulotlardan, shuningdek tarkibida qimmatbaho metallar bo'lgan parchalardan hamda chiqindilardan qimmatbaho metallarni ajratib olish va (yoki) qimmatbaho metallarni affinaj qilish bo'yicha faoliyatni litsenziya asosida amalga oshiruvchi tadbirkorlik subyektlari (bundan yakka tartibdagi tadbirkorlar va oilaviy tadbirkorlar mustasno);

yombi — qimmatbaho metall mineral-xomashyosidan ajratib olingan, 0,3 grammdan ortiq og'irlikka ega bo'lgan qimmatbaho metallning tabiiy hosilasi (donasi, zarrasi);

zargarlik buyumlari ishlab chiqaruvchilar — qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan zargarlik hamda boshqa buyumlarni yasash faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar;

standart quymalar — O'zbekiston Respublikasining texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlari talablariga, London qimmatbaho metallar bozori uyushmasining (London palladiy va platina bozorining) yoki tovar-xomashyo birjalarining talablariga muvofiq bo'lgan affinaj qilingan qimmatbaho metallar quymalari;

tarkibida qimmatbaho metallar bo'lgan parchalar va chiqindilar — o'zining iste'mol va (yoki) funksional xususiyatlarini yo'qotgan buyumlar, shu jumladan ularning tarkibiy qismlari, tuzatib bo'lmaydigan yaroqsiz mahsulot, shuningdek ishlab chiqarish hamda foydalanish jarayonida hosil bo'lgan, tarkibida qimmatbaho metallar bo'lgan xomashyoning, materiallarning, xomaki mahsulotlarning va mahsulotlarning qoldiqlari;

O'zbekiston Respublikasi Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar davlat fondi — O'zbekiston Respublikasining moliyaviy, ishlab chiqarish, ilmiy, ijtimoiy-madaniy va boshqa ehtiyojlarini ta'minlash uchun mo'ljallangan fond;

o‘lchovli quymalar — O‘zbekiston Respublikasining texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlari yoki quymalarni ishlab chiqaruvchi davlatning normativ hujjatlari talablariga muvofiq bo‘lgan affinaj qilingan qimmatbaho metallar quymalari;

qimmatbaho metallardan va qimmatbaho toshlardan yasalgan zargarlik hamda boshqa buyumlar — zeb-ziynat, maishiy hamda diniy ashyolar sifatida qo‘llaniladigan, qimmatbaho metallardan va ularning qotishmalaridan yasalgan hamda ushbu Qonunda belgilangan eng past asillik darajalaridan kam bo‘lmagan asillik darajalariga ega bo‘lgan, shu jumladan bezakli ishlov berishning har xil turlaridan foydalanilgan, qimmatbaho toshlar va boshqa materiallar o‘rnatilgan yoki o‘rnatilmagan holda yasalgan buyumlar yoxud tabiiy yoki sun’iy materiallardan yasalgan, bezakli ishlov berishning har xil turlaridan foydalanilgan, qimmatbaho toshlar o‘rnatilgan holda yasalgan buyumlar. Qimmatbaho metallardan tayyorlangan pul belgilari, standart va o‘lchovli quymalar, shuningdek qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan tayyorlangan davlat mukofotlari, mukofot belgilari va sport mukofotlari qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan yasalgan zargarlik hamda boshqa buyumlarga kirmaydi;

qimmatbaho metallarni affinaj qilish — ajratib olingan qimmatbaho metallarni ularga fizik va kimyoviy ishlov berish usullarini qo‘llagan holda aralashmalardan hamda qo‘silib chiqadigan komponentlardan tozalash jarayoni bo‘lib, u qimmatbaho metallarni O‘zbekiston Respublikasining texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlariga yoki affinaj qilingan qimmatbaho metallarga oid xalqaro standartlarga muvofiq bo‘lgan sifat darajasiga yetkazishga qaratilgan;

qimmatbaho metallar tahlili — buyum yasalgan qimmatbaho metallning va qimmatbaho metallar qotishmasining kimyoviy tarkibini, shu jumladan uning buzilishini nazarda tutuvchi usullarni qo‘llash yo‘li bilan aniqlash;

qimmatbaho metallar — har qanday ko‘rinish va holatdagi, shu jumladan yombi va affinaj qilingan holatdagi, shuningdek xomashyodagi, qotishmalardagi, xomaki mahsulotlardagi, sanoat mahsulotlaridagi, kimyoviy birikmalardagi, qimmatbaho metallardan yasalgan zargarlik hamda boshqa buyumlardagi, qimmatbaho metallardan tayyorlangan pul belgilaridagi, ishlab chiqarish hamda iste’mol parchalaridagi va chiqindilaridagi oltin, kumush, platina hamda platina guruhibiga kiruvchi metallar (palladiy, iridiy, rodiy, ruteniy va osmiy);

qimmatbaho toshlar — tabiiy olmoslar, yoqtular, zumradlar, sapfirlar, aleksandritlar, xom (tabiiy) va ishlov berilgan tarzdagi tabiiy marvarid. Qahraboning noyob hosilalari qimmatbaho toshlarga tenglashtiriladi;

qimmatbaho metallarni ishlab chiqarish — qazib olingan rudalardan, konsentratlardan, boshqa yarim tayyor mahsulotlardan, tarkibida qimmatbaho metallar bo‘lgan parchalardan hamda chiqindilardan qimmatbaho metallarning ajratib olinishi, shuningdek qimmatbaho metallarning affinaj qilinishi;

qimmatbaho metallar parchalari va chiqindilarini qayta ishlash (ularga ishlov berish) — ishlash muddatini o‘tab bo‘lgan yoki foydalanishdan chiqarilgan texnik buyumlardan, shuningdek tarkibida qimmatbaho metallar bo‘lgan parchalardan va chiqindilardan O‘zbekiston Respublikasining texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlari talablariga yoki affinaj qilingan qimmatbaho metallar bo‘yicha xalqaro standartlarga muvofiq bo‘lgan sifat darajasiga yetkazishga qaratilgan mexanik, kimyoviy hamda metallurgiya jarayonlaridan foydalangan holda qimmatbaho metallni ajratib olish;

qimmatbaho metallarni qazib olish — tarkibida qimmatbaho metallar bo‘lgan konsentratlarni va boshqa yarim tayyor mahsulotlarni olish uchun tub (rudali), sochma konlardan va texnogen mineral hosilalardan qimmatbaho metallarni ajratib olish bilan bog‘liq ishlar majmui;

qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlarni oltin izlovchilar usulida qazib olish — miqdor va sifat jihatidan sanoat usulida qazib olish obyektlari bo‘lmasan yer qa’ri uchastkalarida, shu jumladan sochma oltin uchastkalarida qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlarni tadbirkorlik tavakkalchiligi asosida qazib olish;

qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlarni sanoat usulida qazib olish — miqdor va sifat jihatidan sanoat usulida qazib olish obyektlari bo‘lgan, tarkibida foydali qazilmalar mavjud bo‘lgan yer qa’ri uchastkalarida qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlarni qazib olish;

qimmatbaho toshlarni rekuperatsiya qilish — ishlash muddatini o‘tab bo‘lgan yoki foydalanishdan chiqarilgan asboblar va boshqa texnik buyumlardan, shuningdek tarkibida qimmatbaho toshlar bo‘lgan chiqindilardan keyinchalik ularni O‘zbekiston Respublikasining texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlari talablariga yoki xalqaro standartlarga muvofiq bo‘lgan sifat darajasiga yetkazgan (tozalagan) holda qimmatbaho toshlarni ajratib olish;

qimmatbaho toshlarning chiqindilari — tarkibida har qanday ko‘rinishdagi va holatdagi qimmatbaho toshlar mavjud bo‘lgan, qimmatbaho toshlarga ishlov berish hamda ulardan foydalanish jarayonida hosil bo‘lgan chiqindilar;

qimmatbaho toshlarni qazib olish — tub (rudali) va sochma konlardan qimmatbaho toshlarni ajratib olish, shuningdek qimmatbaho toshlarni saralash, birlamchi tasniflash va dastlabki baholash bilan bog‘liq bo‘lgan ishlar majmui;

qimmatbaho toshlarni saralash va birlamchi tasniflash — boyitish jarayonining yakunlovchi qismi bo‘lib, u namunaviy nusxalar va tasniflagichlarning tasdiqlangan to‘plamlari asosida mineral-xomashyodan ajratib olingan qimmatbaho toshlarni ajratish, shuningdek ularni jahon bozorida qabul qilingan navlarga mos keladigan alohida navlarga ajratish imkonini beradi;

qimmatbaho toshlarni birlamchi baholash — boyitish jarayonining yakunlovchi qismi bo‘lib, u qimmatbaho toshlar narxlarining preyskurantlari asosida qimmatbaho toshlarni baholashni ta’minlaydi;

qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan yasalgan zargarlik hamda boshqa buyumlarni tamg‘alash — qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan yasalgan zargarlik hamda boshqa buyumlarga tekshirish va (yoki) tahlil qilish natijalari asosida davlat asillik darajasi tamg‘asi izini yoki belgilangan namunadagi asillik darajasi belgisini qo‘yish jarayoni.

Qimmatbaho metallarning va qimmatbaho toshlarning muomalada bo‘lishi sohasini davlat tomonidan tartibga solish quyidagilar orqali amalga oshiriladi:

qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlarni qazib olish uchun yer qa’ri uchastkalaridan foydalanish huquqiga doir ruxsatnomalar berish;

qimmatbaho metallarni affinaj qilish bo‘yicha faoliyatni litsenziyalash;

qazib olinayotgan qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlarni O‘zbekiston Respublikasining Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar davlat fondi uchun sotib olishga, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qimmatbaho metallardagi aktivlarini shakllantirish hamda to‘ldirishga doir ustuvor huquqni amalga oshirish;

qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlarni hisobga olishga, saqlashga, tashishga hamda ular bo‘yicha hisobotlar berishga doir talablarni, shuningdek qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar bilan bog‘liq operatsiyalarni amalga oshirishning yagona tartibini belgilash;

qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar bilan bog‘liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi tadbirkorlik subyektlarining harakatlarini normativ-huquqiy jihatdan tartibga solish;

yer qa’ri uchastkalarini geologik jihatdan o‘rganish va qidirish, qimmatbaho metallar hamda qimmatbaho toshlarni qazib olish ustidan vakolatli davlat organlari tomonidan davlat nazoratini amalga oshirish;

qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlarning ishlab chiqarilishi, foydalanimishi hamda realizatsiya qilinishi ustidan vakolatli davlat organi tomonidan asillik darajasi nazoratini o‘tkazish;

qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlarni O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish hamda uning hududidan olib chiqish tartibini belgilash;

affinaj korxonalari faoliyati ustidan davlat nazoratini amalga oshirish;

qimmatbaho metallardan va qimmatbaho toshlardan yasalgan zargarlik hamda boshqa buyumlarning asillik darajasini aniqlash va ularni tamg‘alash ustidan davlat nazoratini o‘rnatish.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlarning muomalada bo‘lishi sohasidagi davlat siyosati amalga oshirilishini ta’minlaydi hamda quyidagilarning tartibini belgilaydi:

tarkibida qimmatbaho metallar hamda qimmatbaho toshlar bo‘lgan yer qa’ri uchastkalarini geologik jihatdan o‘rganish va qidirish;

tarkibida qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar bo‘lgan xomashyoni qazib olish, shuningdek qimmatbaho metallar hamda qimmatbaho toshlarning parchalarini va chiqindilarini hamda qimmatbaho toshlar chiqindilarini tayyorlash;

qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlarni oltin izlovchilar usulida qazib olish bo‘yicha faoliyatni amalga oshirishga ruxsat beriladigan yer qa’ri uchastkalarining har yilgi ro‘yxatini tasdiqlash;

qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlarni sanoat usulida qazib olish;

ishlatib bo‘lingan yerlarni rekultivatsiya qilish, ularni mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining zaxira fondiga qaytarish;

qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlarni oltin izlovchilar usulida qazib olish bo‘yicha faoliyatni amalga oshirish uchun yer qa’ri uchastkalarini elektron auksion orqali realizatsiya qilish;

qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlarni qazib olish uchun yer qa’ri uchastkalaridan foydalanish huquqiga doir ruxsatnomalar berish;

qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlarni oltin izlovchilar usulida qazib olish bo‘yicha faoliyatni amalga oshirish;

yer qa’ri uchastkalarini geologik jihatdan o‘rganish va qidirish, qimmatbaho metallar hamda qimmatbaho toshlarni qazib olish ustidan davlat nazoratini amalga oshirish;

qimmatbaho metallar yombilarini, qimmatbaho toshlarni va qahrabo hosilalarini noyob toifasiga kiritish;

affinaj korxonalarining ishini tashkil etish;

qimmatbaho metallarni affinaj qilish bo‘yicha faoliyatni litsenziyalash;

qimmatbaho metallardan tayyorlangan o‘lchovli quymalarni sotib olish va sotish;

qimmatbaho metallar massasi nominalida ko‘rsatiladigan davlat qimmatli qog‘ozlarini chiqarish, joylashtirish va ularning muomalada bo‘lishi;

qimmatbaho metallardan va qimmatbaho toshlardan yasalgan zargarlik hamda boshqa buyumlarni yasash bo‘yicha faoliyatni amalga oshirish, shuningdek qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish;

qimmatbaho metallarning asillik darajasini aniqlash, ulardan namunalar olish, ularni tahlil qilish, qimmatbaho metallardan va qimmatbaho toshlardan yasalgan zargarlik va boshqa buyumlarni tamg‘alash hamda O‘zbekiston Respublikasi davlat asillik darajalari tamg‘alari izlarining va zargarlik buyumlarini ishlab chiqaruvchilar shaxsiy tamg‘alarining texnik ekspertizasini o‘tkazish;

qimmatbaho toshlarni saralash, birlamchi tasniflash va dastlabki baholash;

qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlarni, ulardan yasalgan mahsulotlarni (buyumlarni), tarkibida qimmatbaho metallar hamda qimmatbaho toshlar bo‘lgan parchalarni, chiqindilarni va xomashyoni hisobga olish, saqlash va tashish;

olib qo‘yilgan hamda davlat daromadiga o‘tkazilgan qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlarni, ulardan yasalgan mahsulotlarni (buyumlarni) realizatsiya qilish;

birjalarda qimmatbaho metallar bilan bog‘liq bitimlarni amalga oshirish;

qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlarni, ulardan yasalgan mahsulotlarni (buyumlarni), tarkibida qimmatbaho metallar hamda qimmatbaho toshlar bo‘lgan parchalarni, chiqindilarni va xomashyoni O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish hamda uning hududidan olib chiqish, shuningdek ularni realizatsiya qilish;

O‘zbekiston Respublikasining Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar davlat fondini shakllantirish, uning qimmatliklarini realizatsiya qilish va ulardan foydalanish;

qimmatbaho metallardan va qimmatbaho toshlardan yasalgan zargarlik hamda boshqa buyumlarning asillik darajasini aniqlash va ularni tamg‘alash tartibini buzganlik uchun moliyaviy sanksiyalarini qo‘llash;

asillik darajasi to‘lovini undirish va uning miqdorlarini belgilash.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar davlat fondini shakllantiradi;

qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlarning muomalada bo‘lishi sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqadi;

O‘zbekiston Respublikasining qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlarga doir talablarni belgilovchi texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarini kelishib oladi;

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Davlat asillik darajasini belgilash palatasi tomonidan asillik darajasining davlat nazoratini amalga oshirish doirasida davlat korxonalar, muassasalar va tashkilotlar, shuningdek ustav fondida (ustav kapitalida) 50 foiz va undan ortiq miqdorda davlat ulushiga ega bo‘lgan yuridik shaxslar faoliyatini nazorat qilish hamda tekshiruvlar o‘tkazishga doir tadbirlarning reja-jadvalini tasdiqlaydi;

jahon bozorida mineral-xomashyoning shunga o‘xshash navlarini baholash uchun qo‘llaniladigan narxlardan kelib chiqqan holda qimmatbaho toshlar narxlari preyskurantini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.¹

Shuningdek davlatimiz rahbari tomonidan qimmatbaho metallar sohasiga oid yangi texnologiyalarni jalb qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekistonda geologiya sohasiga har yili 1 trillion so‘mdan mablag‘ ajratilib, manzilli dasturlar amalga oshirilmoqda. Natijada o‘tgan yili tog‘-kon sanoatida ishlab chiqarish hajmi qariyb 11 milliard dollarga yetdi.

Lekin bu, asosan, qimmatbaho va rangli metallar yo‘nalishida bo‘lib, sanoat uchun muhim minerallar bo‘yicha foydalanilmagan juda katta zaxira mavjud. Xususan, yurtimizda 32 turdagи shunday qazilma boyliklari bor.

Shu bois 15-yanvar kuni o‘tgan taqdimotda davlat rahbari bu yo‘nalishdagi imkoniyatlarni ishga solish bo‘yicha topshiriqlar bergen edi. Bugungi yig‘ilishda shu borada boshlangan ishlar, reja va takliflar ko‘rib chiqildi.

Bugun jahonda texnologik vaziyat tez o‘zgaryapti. Elektromobil, “yashil” energetika, elektrotexnika sanoatida kamyob metallarga talab tobora ortib bormoqda. Shuning uchun so‘nggi yillarda jahon bozorida molibden, tellur, selen, grafit narxlari keskin oshgan.

Prezident bu sohadagi ulkan imkoniyatlarni ko‘rsatib o‘tdi. Sanoat uchun muhim minerallar xomashyosi hamda ularning turini kengaytirish zarurligi ta’kidlandi.

Hozirda O‘zbekistonda 6 turdagи shunday mahsulot ishlab chiqariladi. Bunga qo‘srimcha platina, indiy, vanadiy metallari hamda volfram, molibden, rux, marganes kabi minerallardan yuqori qo‘silgan qiymatli mahsulotlar olish imkoniyati bor. Masalan, avvallari o‘zimizda bo‘lmagan kukun metallurgiyasida

¹ O‘RQ-710-соҳ 23.08.2021. Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar to‘g‘risida
<https://lex.uz/docs/-5595448>

Modern education and development

yiliga 300 million dollarlik, uskunalar va butlovchi qismlar yo‘nalishida 100 million dollarlik qiymat yaratish mumkin.

Yaqinda Yevropa Ittifoqi bilan muhim minerallar bo‘yicha erishilgan kelishuv bu borada katta bozor ochadi.

Shulardan kelib chiqib, mutasaddilarga xorijiy ekspert va investorlar ishtirokida kamyob metallar bo‘yicha 500 million dollarlik istiqbolli loyihamar dasturini shakllantirish topshirildi. Bu yo‘nalishni ilm bilan rivojlantirish, shu maqsadda loyiha ofisi tashkil etib, yetakchi institut va ilmiy markazlarni jalb qilish zarurligi ta’kidlandi.

Navoiy kon-metallurgiya kombinatida qimmatbaho metallar zaxirasini ko‘paytirish rejali ham ko‘rib chiqildi.

Mutasaddilar oltin zaxirasini va ishlab chiqarish hajmini oshirish imkoniyatlari haqida axborot berdi.

Prezident kombinatda ishlab chiqarish tannarxini 10-15 foizga pasaytirish, sanoat kooperatsiyasi va mahalliylashtirish qamrovini kengaytirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi.²

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, O‘zbekiston Jahon bozorida xom ashyo, energiya, rangli metall va b. eksporti bilan qatnashadi, aksariyat texnologiya, kimyo mahsulotlari, oziq-ovqat tovarlarini import qiladi.

2023-yilda sotuv hajmining asosiy qismi oltinga to‘g‘ri keldi hamda ularning qiymati qariyb 15%ga oshgan.

O‘zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasida qimmatbaho metallarning sotuv hajmi 2,2 barobardan oshdi. Bu haqda birja matbuot xizmati xabar berdi.

2023-yilda birja savdolari orqali umumiy qiymati 1,13 trln so‘mlik 1,8 tonna qimmatbaho metallar sotilgan bo‘lib, shundan 99%i oltin savdosiga to‘g‘ri keldi.

Shu bilan birga, O‘zbekiston birjasida kumush savdosи hajmi 2,6 mldr so‘mni tashkil etdi.

Yanvar-dekabr oylarida tovar-xom ashyo birjasida oltin bo‘yicha shakllangan birja kotirovkasi 14,8%ga — 1 gramm uchun 684,8 ming so‘mdan 786 ming so‘mgacha oshgan.

Markaziy bank ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yil oxirida 1 gramm oltin narxi 22,8%ga, ya’ni 691 ming so‘mdan 850 ming so‘mgacha oshgan.

Qimmatbaho metallarning boshlang‘ich bahosi Markaziy bankning birja bitimi tuzilgan sanadagi kursi bo‘yicha milliy valyutada London qimmatbaho metallar bozori uyushmasining so‘nggi tonggi fiksingi asosida belgilanadi.

² Prezident Shavkat Mirziyoyev 29 aprel kuni “Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar to‘g‘risida”gi qonunni

Birja bozorida qimmatbaho metallarning sotuvchisi sifatida “Olmaliq KMK” va “Navoiy KMK” ishtirok etadi, xaridorlari esa sanoat mahsulotlari va zargarlik buyumlari ishlab chiqaruvchilar hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar hisoblanadi.

Sayyoraning 6 ta eng qimmat materiali

1	Antimodda – bir gramm uchun 62,5 trln. dollar
2	Kaliforniy – bir gramm uchun 25–27 mln. dollar
3	Olmos – bir gramm uchun 55000 dollar
4	Tritiy – bir gramm uchun 30000 dollar
5	Taaffet – bir gramm uchun 20000/ bir qirot uchun 4000 dollar
6	Painit – bir gramm uchun 9000 dollar

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. O‘RQ-710-соҳ 23.08.2021. Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar to‘g‘risida <https://lex.uz/docs/-5595448>
2. Prezident Shavkat Mirziyoyev 29 aprel kuni “Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar to‘g‘risida”gi qonunni
3. Vahobov A.V., Malikov T.S. "Moliya" Darslik" NOSHIR" nashriyoti,2012
4. Xodiyev B.Y., Shodmonov Sh.Sh. "Iqtisodiyot nazariyasi" Darslik. Barkamol fayz media",2017
5. Malikov T.S. "Moliya". O'quv qo'llanma. "IQTISOD-MOLIYA",2018
6. Thomas F.Cargill,"The financial system,financial regulation and central bank policy",Cambridge university press,2017
7. Kenneth R. Szulkzyk,"Money,banking,and international finance",2010
8. Thomas D.Simpson, Financial markets,banking, and monetary policy ,2014